

## **OLIY TA'LIM TALABALARINI BIZNES VA TADBIRKORLIK FANLARINI O'ZLASHTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH YO'NALISHLARI**

Karimova Maftuna Nurdinovna<sup>1,2</sup>, Xakimov Sherzod Ikram o'g'li<sup>1</sup>, Himmatov  
Mehroj Sirojiddin o'g'li<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Toshkent davlat agrar universiteti

<sup>2</sup>Tashkent International University of Education xalqaro universiteti o'qituvchisi  
E-mail: [kmaftuna538@gmail.com](mailto:kmaftuna538@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lismi talabalar uchun biznes va tadbirkorlik fanlariga qiziqishni oshirish, o'zlashtirish uchun bir necha zamonaviy, interaktiv pedagogik uslublari haqida qisqacha yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Kichik biznes, tadbirkorlik, interaktiv uslub, ijtimoiy, iqtisodiy, tehnologik, tadqiqot.

## **DIRECTIONS OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MASTERING BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP SUBJECTS OF HIGHER EDUCATION STUDENTS**

Karimova Maftuna Nurdinovna<sup>1,2</sup>, Xakimov Sherzod Ikram o'g'li<sup>1</sup>, Himmatov  
Mehroj Sirojiddin o'g'li<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Tashkent state agrarian university

<sup>2</sup>Tashkent International University of Education  
E-mail: [kmaftuna538@gmail.com](mailto:kmaftuna538@gmail.com)

**Abstract.** This article briefly describes some modern, interactive pedagogical methods for higher education students to increase their interest in business and entrepreneurship.

**Key words.** Small business, entrepreneurship, interactive style, social, economic, technological, research.

Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab oliv ta'limi muassasalari faoliyatida ham bir qancha o'zgarishlar kiritildi, islohotlar amalga oshirildi va respublikaning oliv ta'lim muassasalari talabalari uchun har tomonlama qulay va zamonoviy shart-sharoitlar yaratildi. Aynan ushbu sohadagi islohotlarning amalga oshirilishining maqsadi esa mamlakatimizning asosini yoshlar tashkil etadi, ularni biznes va xususiy tadbirkorlikka yo'naltirishimiz - yangi yutuqlarimizni olib kelishiga, ushbu soha rivojiga hissa qo'shishiga, mamlakatimizni ham iqtisodiy, ham ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shishiga va nihoyat turmush hayotimizni yashilanishiga olib keladi.

Yoshlarga biznes va tadbirkorlikni o'rgatish iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish omili hozirgi dunyoda muhim ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar yo'zberishi natijasida postindustrial jamiyatning axborot jamiyati sari rivojlanishi kuzatilmoqda. O'z-o'zidan ravshanki, insoniyatning bo'lg'usi mavjudligi barcha darajalarda: iqtisodiyot (ishlab chiqarish, savdo, moliya sohasi) da ham, tabiiyki, talim sohasida ham integrasiyalashuv bilan belgilanadi, zero, talim o'z vazifasiga ko'ra o'zgaruvchan muhitni boshqarishga qodir bo'lgan kadrar tayyorlashga burchlidir. Globallashuv va milliy iqtisodiyotning jaxon xo'jalik faoliyati tizimiga integrasiyalashuvi jarayonlari xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yangi shakli – ta'lismi xizmatlari eksport-importi paydo bo'lishini belgiladi.

Jahonda oliv talim tizimlarining rivojlanishini belgilovchi omillar orasida globallashuv, integrasiya va internasionallashuv jarayonlari ayniqsa muhim o'rinni egallaydi.

Globallashuv ta'lif sohasi, uning tarixiy-pedagogik jihatlari, qiyosiy-pedagogik tadqiqotlar, ta'lif metodlari va ta'limning mazmunini xam cheklab o'tgani yo'q. XX asrda "global ta'lif" tushunchasi paydo bo'ldi. Global talim deganda, shunday bir alohida megatizim tushuniladiki, unda milliy va jaxon ta'lif siyosatining maqsadlari qo'yildi va amalga oshiriladi, davlatlar va ularning ta'lif tizimlari o'rtasida shaxsni kamol toptirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan alohida aloqa va munosabatlar amal qiladi.

Ta'limning internasionallashuvi talaba bir mamlakatda, unga ta'lif hizmatlari ko'rsatuvchi o'quv muassasasi esa boshqa mamlakatda bo'lgan har qanday talim faoliyatini anglatadi. Talim olish yoki o'quv materiallari bilan tanishish uchun Internet, elektron pochta, radio, televideenie yordamida yoki boshqa yo'l bilan davlat chegarasidan kesib o'tilishi mumkin.

Biznes va tadbirkorlikka yo'naltirish - biznes va tadbirkorliklar olami va turli faoliyatlar xususiyati bilan tanishtirish tadbirlari tizimi. Biznes va tadbirkorlikka yo'naltirish individual qobiliyatlar va mayllarga, shuningdek, insonga jamiyat yaratgan imkoniyatlarga muvofiq biznes va tadbirkorlikni tanlashga ko'maklashadi.

Biznes va tadbirkorlikka yo'naltirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

biznes va tadbirkorlikka doir bilimlar berish - yoshlarni biznes va tadbirkorlik olami, o'quv yurtlari, biznes va tadbirkorlik faoliyatda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari haqida axborot bilan taminlash;

biznes va tadbirkorlik - yoshlarda mexnatkashlik, ishchanlik fazilatlarini, o'z biznes va tadbirkorliklarini yaratish va bajarishga mas'uliyat bilan yondashish, qobiliyat va mayllarni shakllantirish;

biznes va tadbirkorlikni tanlash, ishga joylashish, biznes va tadbirkorlik fanlarini o'zlashtirish masalalari bo'yicha trening va maslaxatlar berish;

shaxsni biznes va tadbirkorlik sohasida bilimlarini rivojlanirish va uning biznes va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shu jumladan o'z biznes va tadbirkorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda o'quv va ishlab-chiqarish amaliyotlarini yaratish va qayta tayyorgarlikdan o'tishda unga ko'maklashish.

Biznes va tadbirkorlikka yo'naltirishni amalga oshirish uchun biznes va tadbirkorlikning ijtimoiy- iqtisodiy xususiyatlari, biznes va tadbirkorlikni rivojlanish imkoniyatlari, muayyan biznes va tadbirkorlik keng tarqalgan xududlar, biznes va tadbirkorlik egalarining daromadlari darajasi, malaka olish yo'llari va mansab pillapoyalaridan ko'tarish imkoniyatlari, shuningdek, mexnat bozori xususiyatlarini bilish talab etiladi.

G'arb biznes va tadbirkorlikka yo'naltirish maktabida, eng avvalo, muayyan ishlab chiqarish extiyojlari uchun kadrlarni tanlash (ularning muvofiqligi) masalasi o'rjaniladi. Inson iqtisodiy mashinaning yashovchanligini taminlovchi resurs sifatida qaraladi. Shu tufayli ham bu yerda inson o'z ruxiy-fiziologik, aqliy va boshqa xususiyatlariga ko'ra o'ziga yuklatilayotgan mexnat funksiyasiga muvofiqligini tekshirish uchun mo'ljallangan test metodikalari juda ko'p. Insonga ma'lumot olish mablag'larni oqilona sarflash va so'ngra o'zini yaxshi narxga sotish taklif qilinadi.

Biznes va tadbirkorlikka yo'naltirish individga biznes va tadbirkorlik tanlashga yordam berishga qaratilgan faoliyat sifatida tushuniladi. U individ o'z imkoniyatlarini qaysi mexnat faoliyatida namoyon etmoqchi bo'lsa, shu faoliyatni aniqlash jarayonini tashkil etish, individ mazkur faoliyatga bo'lgan o'z mayl va qobiliyatlarini anglab yetishida unga maslahat berish, biznes va tadbirkorlikni o'zlashtirish uchun zarur bilimlarni olish, o'quv va ko'nikmalarni o'zlashtirish yo'l va vositalari haqida axborot berish orqali amalga oshiriladi.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarni biznes va tadbirkorlikka yo'naltirish tizimi sifat jihatidan takomillashtirishni talab qiladi.

Respublikamizda iqtisodiy rivojlanishning globallashuvi sharoitida davlatning raqobatbardoshligi uning mavjud ilmiy-ma'rifiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan to'laqonli

foydalanimish, innovatsiyalarni iqtisodiyotgagina emas, balki ta'lim sohasiga ham samarali joriy etish imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq. An'anaviy biznes va tadbirkorlik tarkibida, xodimlarning iqtisodiy xulq-atvorida, biznes va tadbirkorlik tanlashda qadriyatlar va mo'ljallar tizimi hamda mexnatni tadbiq etish sohalarida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bularning barchasi xodimning yangicha tipi - innovatsion fikrlash uslubiga ega bo'lgan xodim paydo bo'lganini tasdiqlaydi.

Quyidagilar yoshlarni biznes va tadbirkorlikka yo'naltirishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

innovatsion faoliyatda rag'batlar yaratish, iqtidorli yoshlar bilan ishslash tizimini takomillashtirish yo'li bilan yoshlarning innovatsion xulq-atvorini shakllantirish;

yoshlarni tabirkorlik faoliyatiga jalb qilish va o'z biznesini yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish;

mintaqalar va mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi strategik yo'nalishini hisobga olgan holda mexnat bozoridagi talab va taklifning tarkibiy nomutanosibligiga barham berish;

talabalarni ishga joylashtirish va ularning biznes va tadbirkorlik mahoratini oshirishga qaratilgan dasturlar va loyihalarni amalga oshirishda hokimiyat organlari, o'quv yurtlari va ish beruvchilarning hamkorligini kengaytirish.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Фарберман Б. Л. Илфор педагогик технологиялар. – Т., „Фан“, 2020.
2. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)